

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ishi

ta'lim yo'nalishi

III kurs talabasi

SAMADOVA BARCHINOYning

TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI

fanidan tayyorlagan

KURS ISHI

Mavzu: MUSTAHKAM OILA VA UNDA FARZAND KAMOLOTINI

TA'MINLOVCHI USTUVOR OMILLAR

Qabul qildi:

Berdiyeva H.B.

TERMIZ-2015

Mavzu: Mustahkam oila va unda farzand kamolotini ta'minlovchi ustuvor omillar

Kirish

1. Mustahkam oila – jamiyat taraqqiyoti garovidir

2. O'zbek oilasining farzand tarbiyasidagi ustuvor xususiyatlari

3. Oilada mustahkaligiga to'siq bo'luvchi inqirozlar va ularning

oqibatlari

4. Bola tomonidan ota-onalarning va ota-onalikning idrok etilishi

Umumiy xulosalar

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimizda 1998 yilning «Oila yili» deb e'lon qilinishi va shu munosabat bilan «Oila manfaatlarini ta'minlash borasida 1998 yilda amalga oshiriladigai chora-tadbirlar Davlat Dasturi» ning qabul qilinishi va amaliyotga tadbiiq etilishi, Oliy Majlisning XI sessiyasida keng umumxalq muhokamasidan sung «Oila Kodeksi» ning bir ovozdan qabul qilinishi, Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 2 fevraldagi 54-sonli qaroriga binoan Respublika «Oila» ilmiy-amaliy Markazining tashkil etilganligi hukumatimiz tomonidan oila farovonligi, tinch-totuvligi va barqarorligini ta'minlashga bo'lgan e'tiboridan dalolatdir.

Milliy mustaqillikka erishgach, O'zbekiston Respublikasida pedagogika fani taraqqiyotida yangi bosqich boshlandi. Xususan, pedagogik tadqiqotlarning ko'lami kengaytirildi, milliy pedagogik madaniyat, meros chuqur o'rganilib, shaxsga ta'lim beri shva uni tarbiyalash borasidagi jahon tajribalari, yutuqlaridan milliy xususiyatlarga tayangan holda foydalanish borasidagi izlanishlar yuzaga keldi. Oilalarda tashkil etilayotgan tarbiya o'zining tub mohiyatiga ko'ra milliy xususiyatlarni namoyon etish bilan birga ijtimoiy oila tarbiyasi ijtimoiy pedagogikaning muhim yo'nalishi sifatida o'rganildi.

Oila, turmush va vijdon qonunlari asosida quriladi. O'zining ko'p asrlik mustahkam va ma'naviy tayanchlariga ega. O'zbeklarning aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas balki, oilasining qarindosh—urug'lari va yaqin odamlarini, qo'shnilarining omon esonligi to'g'risida hamxo'rlik qilishini birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oliy darajada ma'naviy kadriyat, inson qalbining gavharidir. Oila insonni xalol va pokiza bo'lishiga, ilm fan asoslarini egallashga, beva - bechoralarni qo'llab - quvatlashga, tabiatni e'zozlashga dav'at etadigan diniy, ma'naviy, axloqiy qadriyatlarga alohida e'tibor berishga dav'at etadi. Bu borada buyuk bobokalonlarimiz Imom al-Buxoriy, Baxouddin Nakshband, Xoja Axmad Yassaviy, Imom at-Termeziyning insonni ma'naviy yetuklikka chorlovchi buyuk g'oyalari, xikmatlari katta o'rin tutadi.

“Yurtimizda har bir inson uchun Vatan tushunchasi, avvalo, oiladan boshlanadi, -degan edi Prezidentimiz I.A.Karimov. shu bois oila va mafkura tushunchalari chambarchas bog‘liqdir. Oilaning jamiyatda tutgan o‘rni, tarbiyaviy-axloqiy ahamiyati, qadr-qimmatini anglab yetmasdan turib, xalq mafkura yarata olmaymiz”.

Oila insoniyat yaralgan muhim va muqaddas ijtimoiy institut muassasidir. Darhaqiqat oila, ayniqsa o‘zbek oilasi asrlar osha yosh avlodni tarbiyalashda, komil insonni voyaga yetkazishda muqaddas maskan bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi. Har bir insonda Vatan tushunchasi ilk bor tetapoya bo‘lib o‘sib kelayotgan yosh go‘dakning ongi, ruhi va qalbiga kirib boradi, butun umri, hayotiy faoliyati davomida yana ham sayqalanib, mazmunan mujassamlashadi. Bu jarayon oiladagi sog‘lom muhitda, ota-bobolar o‘giti, ota ibрати, ona mehri, aka-uka, opa-singillarning mehr-oqibati orqali amalga oshib boradi.

Oilada shakllangan odob-axloq, xulq-atvor keyinchalik mahallada, mehnat jamoalarida, o‘quv muassasalarida rivojlanib shaxsning ongi va qalbiga singib boradi. “Oilada, maktabda, mehnat jamoasida, mahallada olib boriladigan axloqiy tarbiya, jamoatchilik fikrining kuchi, ommaviy axborot vositalari, ruhoniylarning obro‘-e‘tibori hamma-hammasi odamlarimizda qonun buzilishi bidan bog‘liq har qanday hatti-harakatlarda unga nisbatan barqaror qarshilikni shakllantirishga qaratilmog‘i lozim”-deydi O‘zbekiston Prezidenti Islom Abdug‘anievich Karimov.

O‘zbek oilalarida barkamol avlodni tarbiyalashdagi o‘rni benihoya katta. Bu yerda asrlar davomida shakllanib kelgan milliy an‘analar, ota-onalar va bolalarning o‘zaro hamkorligi va hurmati, qarindoshlarning bir-biriga yordam qo‘lini cho‘zilishi, oilaviy pokizalik talabalarini saqlanishi kabi urf-odatlar o‘sib kelayotgan yosh avlod ma‘naviyati va axloqi uchun negizga aylanadi, maishiy-madaniy turmushning asosiy tushunchalari va qoidalari xalqimizning urf-odatlari, marosimlari va rasm-rusumlari mustahkam qo‘rg‘ondagidek saqlanib qoladi va avloddan avlodga yetkazib beriladi. Bugungi kunda sog‘lom, aqlli, bilimli, tashabbuskor, fidoiy yoshlarni oila muhitida tarbiyalash dolzarb vazifadir.

1. Mustahkam oila – jamiyat taraqqiyoti garovidir

Ma'lumki, o'zbek oilasining va oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos milliy xususiyatlari mavjud bo'lib, ota-bobolar va momolardan meros qolan ma'naviy qadriyatlar, urf-odatlar zahirida tarkib topgan oiladagi ma'naviy tarbiyaning asosiga suyaniladi.

Yurtboshimiz ta'biri bilan izoh beradigan bo'lsak: "Bunda o'zaro hurmat va qattiq tartib bo'lmasa, oilaning barcha a'zolari o'z burchlarini ado etmasa, birlariga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat ko'rsatmasa, yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas... o'zbeklarning aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilasining qarindosh-urug'lari va yaqin odamlarning, qo'shnilarining omon-esonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oliy darajada ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir".

Oilada bolalarning ruhan va jismonan sog'lom bo'lib o'sishiga oila muhitining ta'siri kattadir, chunki oilaviy muhit qanday bo'lsa, bolalar xuddi shu muhit ta'sirida ulg'ayadilar. Oila muhiti bolalarga ta'sir ko'rsatish bilan birgalikda uni atrofidagi hayotga moslaydi. Jamiyatda esa bolalarni ruhan va jismonan sog'lom qilib voyaga yetkazish ota-onaning nafaqat shaxsiy ishi, balki, ijtimoiy burchi hamdir. Shunday ekan har bir ota-onaning burch va vazifasiga mas'uliyat bilan yondoshib, oilada har tomonlama sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, uning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi, farovonligiga erishish bila bir qatorda, bilimli, aql-zakovatli, udduburon, zukko, ruhan va ma'naviy barkamol insonni voyaga yetkazish, shuningdek, oila an'analari, kasb-kori, shajarasining davomiyoligini ta'minlash, farzandni bo'sh vaqtini unumli o'tkazishga erishish, g'iyohvandlik, maishiy nopoklik, axloqsizlik, nosog'lom e'tiqod, aqidaparastlik, xoinlik kabi ba'zi bir illatlarning paydo bo'lishiga yo'l qo'yimaslik va boshqalar kiradi. Bizning mentalitetimizda farzandlar ota-onalariga o'xshashga harakat qiladilar, ota-onalar esa o'zlari bilib bilmasdan zo'z xarakter va xususiyatlarini, orzu-havaslarini farzandlariga singdirib boradilar. Aynan ana shunday xarakter xususiyatlaridan biri bo'lgan mehr-muruvvatlilik ota-onadan farzandlariga o'tadi. Ayniqsa, o'smirlik davridagi bolalarga ota-onaning mehribonligi, doimiy nazorati

va do'stona maslahati katta ahamiyatga ega. Ammo afsuski, ko'pgina ota-onalar farzandini "bebosh" qilib qo'ymaslik uchun bu ajoyib insoniy tuyg'udan cho'chiydilar. Ular bolaning tantiq, shaxsiyatparast bo'lib qolishidan tashvishlanadilar. Lekin juda ko'p salbiy xususiyatlar bola ota-onaning to'g'ri muruvvatidan, erkalashidan, e'tiboridan mahrum bo'lgan sharoitlarda vujudga keladi. Shuning uchun ham bola o'zining sevishlariga, o'ziga g'amxo'rlik ko'rsatishiga ishonch hosil qilishi ota-onaning muhim vazifasidir.

Har qanday farzand uchun, avvalo, ota-onaning mehribonchiligi, e'tibori zarur. Aksariyat jinoyatchi bo'lib qolgan bolalar ota-onalarining va yaqin qarindoshlarining mehribon emasligidan aziyat chekadilar. Bunday nosog'lom oila muhitida ruhan ezilib, har xil kasalliklarga chalinishi mumkin. Bundan tashqari, u bekorchilik oqibatida, ichkilikbozlik, o'g'rilik, giyohvandlik, jinoyatchilik ko'chalariga kirib ketishi yoki turli jinoiy va diniy ekstremistik guruhlarining ta'siriga tushib qolishi mumkin. Oilada o'smir bola nima bilan doimiy band va qanday ishlar bilan shug'ullanishini dastlab aka-singillar yoxud opa-ukalar, keyinchalik ona sezib qoladi. Lekin oila tarbiyasi kabi katta mas'uliyat birinchi navbatda ota va ona zimmasiga tushadi. Shu o'rinda bir narsani alohida uqtirish kerakka, bolalar tarbiyasida asosiy ta'sirchan kuch-qudrat, bu – Onadir. Prezidentimiz aytganlaridek: "Oilani ham, jamiyatni ham birlashtirib, unga fayzu barokat kiritadigan, xonadonlarimizni mehr-muhabbat, nafosat, ezgulik nuri bilan munavvar qiladigan zotlar ham aslida mo'tabar onalardir". Shunday ekan, oila muhiti, qolaversa, bolalarning kelajagi, ularning ruhiy dunyosi ijtimoiy tasavvurlarining ijobiy va boy bo'lishi ko'p jihatdan onalarga bog'liq.

Yuqoridagi fikrlarimizning isboti sifatida ayrim oilaviy kelishmovchiliklarni keltirib chiqaruvchi ota-ona bilan o'smir bolalar munosabatlaridagi milliy xususiyatlarini sanab o'tish mumkin. Ma'lumki, o'zbek oilasi bolajon oila bo'lib, biz shuning uchun faqat o'smir yoshdagi bolalarning ota va onalariga munosabatini konkret vaziyatlar bilan bog'lash o'rinli deb quyidagi misollarni havola qilamiz. Biror ishni boshlash yoki biror yerga borishda ham ota-onaning fikri bilan kelishish, ulardan ruxsat so'rash barcha bolalarga xos, qizlarning deyarli aksariyati

ham otadan, ham onadan so‘rashadi. Shahardagi o‘g‘il bolalarga onaning fikri, roziligi muhimroq. Shunisi xarakterlii, barcha toifada ham otadan ko‘ra onadan ko‘proq izn (rozilik) so‘rash o‘ziga xosligi ma’lum bo‘ldi. Demak, ota-ona bilan bolalar o‘rtasidagi munosabatlarida onaning yetakchi roli bolalar fikrida yaqqolroq namoyon bo‘ladiki, bu onaning oilaviy yumushlarni boshqarishi, uyda ko‘proq bo‘lishi bilan bog‘liqdir.

Oilaviy kelishmovchiliklar ko‘pgina biror bir muammo asosida kelib chiqishini inobatga olsak, ayrim oilaviy kelishmovchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan ota-ona bilan o‘smir bolalar munosabatidagi milliy xususiyatlardan yana biri namoyon bo‘ladi. Nisbatan olib qaralganda oilaviy muamolar yuzasidan ota-onalar o‘z bolalari bilan deyarli fikrlashmaydilar, ba‘zan fikr so‘raydiganlar qishloq oilalariga xosdir. Jinsga oid oladigan bo‘lsak, ota-onalarning bolalaridan fikr so‘rashi o‘g‘il bolalarga nisbatan qiz bolalarda ko‘proqni tashkil etadi. Ularga nisbatan qizlarning mavqelari yuqoriroq. Bu albatta, bir tomondan o‘smirlarga xos maksimalizm bo‘lib, qizlarning onalari bilan emotsional jihatdan yaqinligini ko‘rsatadi. Shuning uchun aynan qizlar oilada biror nizo chiqib qolsa, unga aralashib, uni to‘xtata olishlariga ishonadilar.

O‘smirlar bilan muomalada har bir ota-ona, kattalar, avvalo bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olib, iloji boricha ular bilan yumshoq va jiddiy munosabatda bo‘lishlari, ayrim masalalarda ularning ham fikrlarini so‘rashlari, gaplariga e’tibor bilan quloq solishlari kerak.

Xullas, oila ma’naviyati tizimida o‘zaro munosabatlarning tartib-intizom, otaonalik burchining anglanish darajasining ahamiyati nechog‘li kattaligini isbotlaydi. Oilaviy o‘zaro munosabatlarda ba‘zan kattalarning aybi bilan sodir bo‘ladigan nizolar, tabiiyki, bola tomonidan idrok qilinadi, anglanadi, ma’lum bir bahoga (ijobiy va salbiy) ega bo‘ladi. Ushbu baholar real vaziyatlarda salbiy xulq shaklida namoyon bo‘ladi. Natijada bolaning oilaga, uning qadriyatlariga, istiqbolda oila qurishga bo‘ladigan intilishlaridaaks etadi. Ana shu barcha ko‘rinishlarni hisobga olgan holda oilada ota-onaning farzandlar ma’naviy tarbiyasidagi o‘rnini baholashda xolislik bilan yondoshishlikni taqazo etadi.

Oilaviy kelishmovchiliklar to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlar esa oiladagi munosabatlar ustivor bo'lgan oilalarda ijobiy, nosog'lom yoki notinch, qattiqqo'llik va asossiz tazyiq, ustun oilalarda esa salbiy holatlarga olib keluvchi tasavvurlar shakllanadi.

Demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etar ekanmiz, barkamol insonni tarbiyalash, mehr-muruvvat tuyg'usiga boy shaxsni voyaga yetkazish eng ustivor vazifalardan biri bo'lib qoladi, bu esa jamiyatimizda mehr-muruvvat madaniyatini rivojlantirishni taqazo etadi. Chununchi, mehr-muruvvat madaniyatini o'zida shakllantira olgan har bir inson ruhan va jismonan sog'lom bo'ladi.

Shu jihatdan olganda barcha farzandlarimiz qalbida mehr-muruvvat va rahmdillik tuyg'ularini shakllantirish vakamol toptirish tuyg'ularini shakllantirish va kamol toptirish prinsipial mohiyatga ega bo'lib, bu vazifaning izchil amalga oshirilishi ota-ona zimmasidir. Zero ota-onaning burchlaridan eng oliysi ana shu ma'naviy tarbiya riqali, qadriyatlar orqali, vatanga sodiq farzandlarning tarbiyalash va ularda vataniga, o'z xalqiga nisbatan faxrlanish tuyg'usini uyg'otishdir.

Oila – an'anaviy tarbiyaning asosiy instituti bo'lib hisoblanadi. Bola yoshlik davrida oilada olgan ta'lim – tarbiyasini butun umri davomida saqlab qoladi.

Bola hayotini asosiy qismini oilada o'tkazadi, o'zining ta'sir kuchiga ko'ra hech qanday tarbiya vositasi oila bilan bellasha olmaydi. Oilada bola shaxsini asoslari tarkib topdiriladi maktabga borganda esa bola shaxs sifatida shakllangan bo'ladi.

Oila bolalarga insoniyva salbiy ta'sir etish omili bo'lishi mumkin. Bola shaxsiga ijobiy ta'sir etish shundan iboratki, oilada bolaga eng yaqin insonlardan - ota, ona, buvi, buva, aka, opalardan tashqari hech kim ulardek bolani yaxshi ko'rib, u haqida qayg'urmaydi.

Shu bilan birga bola shaxsini shakllantirishga, ularga tarbiya berishda oila salbiy ta'sir ham ko'rsatishi mumkin. Oila – bu o'ziga xos jamoadir u tarbiyada asosiy o'ringa egadir.

Oilani o'ziga xos tarbiyaviy ahamiyatini hisobga olgan holda, oilani bolaga

ijobiy ta'sirini oshirib, salbiy ta'sirini kamaytirish zarur. Buning uchun esa tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan, ichki oilaviy ijtimoiy-psixologik omillarni aniq belgilash lozim.

Bolani tarbiyalashda asosiysi ota-ona bilan bola o'rtasida qalban yaqinlikka va ahloqiy bog'likka erishishdir. Ota-onalar hech qachon tarbiya jarayonini o'z holiga tashlab qo'ymasligi kerak, ayniqsa katta bo'la boshlagan bolani o'z holiga tashlab qo'ymasligimiz kerak.

Bola oilada birinchi hayotiy tajribani o'rganadi, kuzatadi va o'zini turli hil vaziyatlarda qanday tutish kerakligini o'rganadi.

Biz bolani nimaga o'rgatsak uni aniq, hayotiy misollar bilan mustaxkamlash kerak, bola kattalarni aytgan gaplari amalda ham bir ixl bo'lishini ko'rishi kerak. (masalan: agar bola har kuni ota-onasi tomonidan yolg'on gapirish mumkin emasligini eshitsa-yu, leki ota-ona o'zi sezmagan holda shunga qoidaga rioya qilmasalar, bola tarbiyasiga darz ketadi). Har bir ota-ona farzandlarida o'zlarni davomchilarini ko'radi. Farzandlarini o'zlari hohlagan inson bo'lishlarini hohlaydilar.

Ota-onalar o'rtasidagi mojaroli vaziyatlar. Ota-onalar o'rtasidagi mojaroli vaziyatlar – bu ota-onalar tomonidan bola tarbiyasiga turlicha yondashuvdir. Mojaroli vaziyatlarni al etish uchun quyidagilarga rioya qilish kerak.

Ota-onalarni birinchi vazifasi - umumiy qarorga kelish, bir-birini ishontirishdir, aga rota yoki ona biror-bir qarorni qabul qilishdan oldin ikkinchi tomonni fikrini ham hisobga olishi lozim. Ota-onalarni ikkinchi vazifasi – bola ota-onalarini qarashlarida ma-qarshilikni ko'rmasligi kerak, muammolarni alohida muhokama qilish zarur.

Bola juda tez aytgan fikrlarni o'zlashtiradi va o'ziga xos holda ulardan foydalanadi. Ota-onalar qaror qabul qilishda birinchi o'ringa o'zlarini qarashlarini emas, balki bolaga foyda keltirishni o'ylashlari kerak.

Kattalar va bolalar o'rtasidagi muloqotda quyidagilarga amal qilish lozim.

1. Bolani qanday bo'lsa, shunday holda qabul qilish kerak.
2. Kattalar bolalar ko'zi bilan muammolarga qarashlari va ularni holatlarini

qilishlari kerak.

Ota-onalar farzandlarini, ularni hech narsaga (hunukligi, sho'xligi, epchill emasligiga) masdan yaxshi ko'radilar. Bola qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilinadi.

Agar bola ota-onalarni xoxish va istaklariga mos bo'lsa ya'ni yaxshi o'qisa, a'lo xulqli bo'lsa, agarda bola ota-onalarni talabalariga javob bermasa, bunda bolalarni ota-onalar o'zlaridan uzoqlashtiradilar va ularni munosabatlari yomon tomonga o'zaro boradi.

Bu esa sezilarli qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, bola ota-onalariga ularni mehribonliklariga ishonmaydi. Ayrim oilalarda bola ota-ona tomonidan umuman qabul qilinmaydi. Ular bolaga nisbatan befarq bo'ladilar vauni o'zlaridan itaradilar (masalan: ichkilikka berilgan oila). Lekin yaxshi tinch oilalarda ham bolaga nisbatan befarqlik holatlari uchraydi (masalan: kutilmagan farzandni tug'ilishi, ona chiroyli lekin qizi xunuk bu esa onani g'ashiga tegadi).

Oilada bolani tarbiyalashda uchraydigan xatoliklar turli tumandir. Ular orasida keng tarqalganlaridan biri ota-onalarning xaddan tashqari obro'talabliklari, xukmronlikka intilishlaridir. Bolaning har bir qadami nazorat ostiga olinsa, uning xulqidagi mustaqillik yo'qqa chiqariladi. Bolada o'z kuchiga va imkoniyatlariga ishonch yo'qoladi. Ichki istak va intilishlar shakllanmasdan itoat qilish talablari bilan boshlab turadi.

Oilaviy tarbiyadagi xatolikning turlaridan Yana biri, bolalarning erka bo'lishi, ularga nisbatan biror talabning yo'qligi bilan bog'liq. Bu holda ota-onalar ba'zan bolalarning imkoniyatlariga yetarli baho berishmay va ularning ko'pgina ishlarini o'zlari bajarishadi. Natijada bolada mustaqillik, mehnat qilish ishtiyoqi, topshirilgan ishga ma'suliyat hissi rivojlanmaydi. Bola o'z ishini tanlay olmaydi, uni oxirigacha yetkaza olmaydi, erksiz bo'lib qoladi.

2. O‘zbek oilasining farzand tarbiyasidagi ustuvor xususiyatlari

O‘zbekiston Respublikasida yangidan shakllantirilayotgan inson taraqqiyoti konsepsiyasining asosiy mazmuni jamiyatda oila faravonligini yaxshilash, ularning barqarorligini ta‘minlash, ayniqsa oilada ayol mavqeini tubdan o‘zgartirish zarur, degan tamoyilga asoslanadi. Shu bilan birgalakda ushbu masalani ijtimoiy-falsafiy, psixologik va pedagogik g‘oyalarga asoslanuvchi ilmiy-metodik ta‘minoti umuminsoniy qadriyatlarga mansubligi va milliy madaniyatni qayta tiklash va mustahkamlash, o‘zbekiston xalqlari ma‘naviy merosini rivojlantirish va jahon sivilizatsiyasi bilan boyitish nuqtai nazaridan qarab chiqishni taqazo etadi.

Mustaqilikka erishganimizdan boshlab oilalar haqida g‘amxo‘rlik davlat siyosatining diqqat markazida bo‘lib keldi. Mahallalarni o‘z-o‘zini boshqarish siyosati oilalarning mustahkamlanishiga, salohiyatini oshirishga ularni moddiy va ma‘naviy rag‘batlantirishga muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘z-o‘zini boshqarish tizimi oila faravonligini oshirish, mahallada aholi tinchligini saqlash, oiladagi kelishmovchilikliklarni bartaraf etish, farzandlar tarbiyasiga yaqindan yondoshish kabi tamoyillarni o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston mustaqillik yo‘lida dadil qadam tashlab borar ekan, jamiyatdagi o‘zgarishlar va uning istiqboliga davlat siyosati darajasida qarashlikni taqazo etmoqda. Respublikamizda amalga oshirilayotgan bu boradagi barcha ijobiy ishlar demokratik davlatchilikning o‘ziga xos rivojlanish jarayonida ma‘naviy-ma‘rifiy, tarbiyaviy sohada ham ijobiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Bunda har bir yilning bir-biri bilan bog‘liq ravishda noalanishi va bu borada amalga oshirilayotgan ishlar diqqatga sazovordir. Ushbu yillar orasida “Oila yili”, “Sog‘lom avlod yili”, “Sihat salomatlik yili”, “Ijtimoiy himoya yili”ning davlat dasturlari alohida ahamiyat kasb etadi. Bu tadbirlarning barchasini amalga oshishida davlat siyosatini bu boradagi amaliy ishlari bilan bir qatorda uning bosh g‘oyasi mazmunida xalqimiz, Vatanimizning ravnaqi, oilalarning baxtli hayoti mujassamdir.

Oiladan boshlanur Vatan,

Oiladur bir jonu bir tan.

Gar oila bo'lsa mustahkam,
Mustahkamdir elu-yurting ham!

Ushbu so'zlar zamirida oilaning jamiyatdagi tutgan o'rnini, oilaning naqadar muqaddas ekanligini anglash qiyin emas. Oilalarga davlat tomonidan qilinayotgan e'tibor uning mustahkalanishiga muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimovning tashabbusi bilan bu borada amalga oshirilayotgan ishlar tahsinga sazovordir. Xalqaro kuzatuvchilar ham bu borada Respublikamizda amalga oshirilayotgan ishlarga ijobiy baho bermoqdalar. Barcha ishlar respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan xalqaro tashkilotlar bilan bahamjihat amalga oshirilmoqda. Jahon hamjamiyati ham oilaning mustahkamligi, tinch-totuvligi, uning hayotdagi o'rnini e'tirof etgan holda bir qancha tadbirlarni amalga oshirmoqda. Shuningdek, 1994 yili BMT tomonidan har yilning 15 may kuni "Xalqaro oila kuni" deb e'lon qilinishi va bu kun ko'tarinki ruhda bayram sifatida o'tkazilishi uning yorqin dalilidir. G'arb mamlakatlarida oilaning qadriyat sifatida nufuzi tushib bormoqda. Oilada bo'layotgan ajrimlar yildan yilga ortib borishi turmush qurmasdan turib farzand ko'rish, bir xil jinsga mansub kishilarning oila qurishi tabiiy hol bo'lib bormoqda. Bu masalalarga mamlakatimiz rahbariyati, shaxsan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan alohida e'tibor berilib o'z vaqtida O'zbekistonda sog'lom oila yaratish g'oyasi shakllandi. 1998 yil "Oila yili" sifatida davlatimiz va jamiyatimizning ijtimoiy-ma'naviy, siyosiy-iqtisodiy oili bo'lib xizmat qilmoqda. Xalqimizning asrlar davomida adolatli davlat farovon jamiyat va erkin hayot qurish orzusi oila totuvligida namoyon bo'ldi. Yoshlarimizning bugungi zamon talablari va andozalariga har tomonlama javob beradigan bilii va saviyasi milliy boyligimizdir. Shu bilan birga, ajdodlarimizga xos milliy g'urur, insoniy qadr-qimmmat, oriyat kabi ma'naviy-ma'rifiy salohiyat va fazilatlar qayta tarkib toptirildi. Oilaga munosabatimizning qadriyatli mazmun kasb etishi odamlar qalbida mudrab yotgan qancha-qancha olijanob, ezgu niyat va umidlarni ro'yobga chiqarishga sharoit yaratib berildi. Barkamol avlodni tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Mustaqil vatanimizning birinchi "Sog'lom avlod uchun" ordeni ta'sis etildi.

“Sog‘lom avlod uchun” xalqaro jamg‘armasi tuzildi. Sog‘lom nasl, ruhi, fikri sog‘lom, iymon-e‘tiqodi butun, bilimli, ma‘naviyati yuksak, mard va jasur, vatanparvar avlodni tarbiyalash masalasida oila muhim rol o‘ynaydi.

Oilada ona sog‘lig‘ini mustahamlash va sog‘lom bola tug‘ilishi masalalariga e‘tibor kuchaytirildi, zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar, profilaktika tadbirlari muntazam o‘tkazilmoqda. Aql, zakovatli bolalar kamol topishi uchun pedagogika va psixologiyaning zamonaviy usullarining qo‘llash ko‘nikmalari shakllantirildi. Eng yaxshi an‘analarimiz va urf-odatlarimiz asosida fuqarolarni Vatanga, xalqqa muhabbat va sadoqat, mustahkam va sog‘lom oila qadriyatlarini shakllantirish uchun zarur jarayonlar davom ettirildi. Darhaqiqat mamlakatimizda tarixan qisqa 15 yil davomida ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohada mamunan boy ishlar qilinganligiga guvoh bo‘lamiz. Ayniqsa, oila masalasi davlat siyosatining bosh mavzusiga aylandi. Ya‘ni ularning barchasini negizida inson, yurtimiz fuqarolarini har tmonlama muhofaza qilish yotadi. Har yili yangi yilni bir-biri bilan bog‘lanishi, dasturlar qabul qilinishining barchasi mamlakatimizda oilaning farovnligini, xalqimiz ma‘naviy-huquqiy qadriyatlarini muhofaza qilish, ularning farovon hayot kechirishlari uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadi yotadi.

Shuningdek, 1997 yili “Inson manfaatlari yili”, 1998 yili “Oila yili”, 1999 yilni “Ayollar yili” yoki 2007 yilni “Ijtimoiy himoya yili” deb e‘lon qilinishining zaminida inson va uning hayotini farovon bo‘lishi, fuqarolar jamiyatini shakllanishi, rivojlanishi, maqsad va vazifalari ifojalangan. Ana shunday maqsad, vazifalarni hayotga tadbiq etishda oila, unda tarbiya olayotgan shaxs ijtimoiylashuvi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, millatni millat qilishda oila, ona, ayol, tobora jamiyat hayotida ijtimoiy mazmun kasb etib qadriyatga aylanib bormoqda. Oila shunday makonki, unda hayotning davomiyligini ta‘minlovchi shaxs shakllanadi. Etnik madaniyat, axloqiy-ma‘naviy qadriyatlarimiz, an‘analarimiz saqlanadi, uni xususiyatlarini qadrlash orqali tarbiyalanadi.

Erkin fuqarolik jamiyatini qurayotgan O‘zbekistonda onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish borasida olib borilyotgan barcha ezgu ishlar oila muhitida yangicha fikrlash, yaxshi yashash va porloq kelajakni yaratishda hamjihatlikka

tayanadi. Zero, sog‘lom oila va sog‘lom avlod g‘oyasining asoschisi va rahbari bo‘lgan Prezidentimiz va davlatimiz olib borayotgan siyosatni yakdillik bilan qo‘llab quvatlayotgan oilalar, ayollar va yoshlar bu ezgu niyatlarning timsoli va faollaridir. Darhaqiqat, hech bir davlatda oilaga e‘tibor davlat darajasida bizning davlatimizdek nufuzga ega emas. Shuning uchun buni qadriga yetmoqlik, ana shu e‘tiborni o‘z nuqtai nazaridan kelib chiqib hayotga tadbiiq etmoqlik zarur. Buning uchun barchamiz bu ezgu ishlarga mas’uliyatimizni unutmasligimiz kerak.

Baxtli insonning baxtsiz insondan farqlovchi mezonlaridan ana shu bevosita oilasi bilan bog‘langan niyat orzularni yurti, vatani taqdiri bilan bog‘lay olishdir. Chunki, haqiqiy vatanparvar insonning shaxsiy manfaatlari oilasi yoki yurti manfaatidan ayricha bo‘lishi mumkin emas. Shuni tushungan holda har bir yurtimizning fuqarolaridan bugungi davr talabi, davlatimiz siyosatini izchil amalga oshirishda sidqidildan yondoshishlikni taqazo etadi. Zero,bugungi o‘zbek oilasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish bosh masala ekan, barcha ko‘rilayotgan tadbirlar xususida, oilaning mustahkamlashni o‘z oldimizga bosh maqsad qilib qo‘ymog‘imiz darkor.

3.Oila mustahkaligiga to'siq bo'luvchi inqirozlar va ularning oqibatlari

Afsuski, barcha oila ham ota-ona va ular dunyoga keltirgan farzandlar bilan to'liq bo'lavermaydi. Taqdir taqozosi bilan ayrim oilalarda nizolar kelib chiqadi va uning oqibati sifatida nikoh barbod bo'ladi. Olimlar nikohning barbod bo'lishini o'rganib, uning sabablari turlicha bo'lishi mumkinligi to'g'risida o'z nazariy qarashlarini bayon etganlar.

Masalan, ayrim psixologlar ajrimlarni "turtki" konsepsiyasi orqali tushuntirishga urinadilar. Ya'ni, yaxshi tinch-totuv yashayotgan oilada birdan shunday holat yuz beradiki, masalan, xiyonat, o'lim, xastalik, rashk va shunga o'xshash voqealar turki bo'ldiyu, oila ustuni qulaydi. Aslida hayotda qo'qqisdan shunday bir silkinish yoki turtki bilan oila birdan buzilib ketishi kam uchraydi.

Yana bir holat olimlar fikricha, "orqaga ketish" deb nomlanadi. Bu shunday holatki, unga ko'ra, er va xotinni yaxshi, iliq munosabatlar bog'lab turgan, lekin aynan muhabbat birdan sovib, er-xotin bir-birini ko'rsa g'ashi keladigan, gaplari yoqmaydigan, nizokash bo'lib qoladi. Bunday voqealar hayotda tez-tez uchraydi. Sababi – birdan yongan olov, ya'ni, muhabbat, ma'lum vaqt o'tgach o'chishi, so'nib qolishi mumkin.

Shu kabi holatlar va undan boshqa sabablar tufayli oila ajrimlarining sodir bo'lishi barcha zamonlar va davrlarda ham kuzatilgan. Faqat nikohning barbod bo'lishi shakllari va sabablarida har bir davrda o'ziga xos asoslar bo'lgan deyish mumkin.

Masalan, Sharq mamlakatlarida qadimdan nikohning barbod bo'lishi eng kam uchraydi, deb hisoblab kelingan. Chunki oila institutining poydevori mustahkam bo'lishiga ajdodlarimiz qayg'urganlar. Yetti pushtini surishtirish, sovchilik instituti orqali bir-biriga mos keladigan yoshlarning taqdirini bog'lash, hattoki, uzoq qarindoshlar o'rtasidagi nikohlar, ya'ni, oldindan bir-birlarini bilgan odamlarning o'zaro kelishuvi, mehr va muhabbat rishtalari orqali oila qurish o'zbekchilikka xos odatlar sifatida qadrlangan va ta'kidlab o'tilgan nikoh

motivlarining barchasida oqilona fikr yuritish, yoshlar va ular ota-onalarining “etti o‘lchab bir kesishi” oilaning mustahkam bo‘lishi uchun zamin hisoblangan.

Nikoh ajrimlariga kelsak, bunday holat Sharq xalqlarida ham, bizda ham sodir bo‘lgan. Eski manbalarda nikoh ajrimiga sabab bo‘lgan omillar sifatida avvalo, er yoki xotinda to‘ydan keyin aniqlangan nasliy xastaliklar, ko‘p holatlarda erkak kishining, ayrim holatlarda ayolning boshqa inson bilan “til” topishib ketishi, boobro‘ va mansabdor shaxsning kelinchakni yoqtirib qolishi va zo‘rluk bilan eski oilani buzishga majbur qilishlar, farzandsizlik, ayolning bepushtligi sabab erkakning xotinni taloq qilishi, iqtisodiy nochor yosh oilaning o‘z ro‘zg‘orini yurita olmaganligidan ayolning boshqa odamga turmushga chiqishga majbur bo‘lib qolishi kabi sabablar qayd etilgan.

Muhimi shunki, nikohning barbod bo‘lishidagi tashabbus asosan erkak kishining qo‘lida bo‘lgan. Agar u xohlasagina nikoh barbod bo‘lgan. Agar mabodo ayol tashabbus ko‘rsatsa, u qattiq jazolangan, jamoatchilik uni qoralagan, hattoki, tosh bo‘ron qilinganligi to‘g‘risida qadimgi tarixdan, eski kinofilmlardan ma’lum.

Boshqa xalqlarda ham o‘ziga xos an’analar mavjud bo‘lgan. Masalan, qadimgi Xitoyda nikoh ajrimiga olib keladigan sabablarga erning ota-onasi ra’yiga qaramaslik, ularga kelinning gap qaytarishi, betga choparlik, bepushtlik, mahmadonalik, bedavo xastalik, rashk kabilar kirgan. Lekin yuqoridagi holatlar bo‘lsa-yu, ayol erining ota-onasiga aza tutayotgan bo‘lsa yoki u chin yetim bo‘lsa, eri uni baribir uydan xaydab yubora olmagan.

Qadimgi Gretsiyada esa nikoh ajrimini sodir etish ancha yengil bo‘lgan. Er guvohlar oldida xotiniga u bilan ortiq yashay olmasligini, nikohi buzilganligini aytgan, ayol barcha sep-suriqlarini yig‘ishtirib, o‘z ota-onasining oilasiga qaytib ketavergan. Sarpo suriqlar, ayolga tegishli barcha narsalarning unga berilishi majbur hisoblangan, hattoki, ajrimning sababi ayolning xiyonati bo‘lgan taqdirda ham mol-mulk, ziynatlar ayolga berilavergan. Lekin ayol eri bilan yashashni xohlamay qolgan holatlarda uning ajrim olishi mushkulroq bo‘lgan, bunday paytlarda xotin shahar xokimiga yozma ravishda rasmiy murojaat qilishi, va ular qaror qabul qilishi lozim bo‘lgan. Bunday hollarda kim aybdor deb topilishidan

qat'iy nazar, bolalar otasi bilan qoldirilgan.

Rimliklarda ham ajrimlar ilgaridan odatiy holday qaralgan. Tarixdan ma'lumki, shoir *Ovidiy* va tarixchi *Pliniy* uch marta uylanganlar, *Yuliy Sezar* va *Antoni* esa to'rttadan xotinga ega bo'lganlar. Bu kabi tarixiy hodisalar manbalarda, tarixiy filmlarda yaxshi aks ettirilgan.

Qadimgi Hindistonda esa nikoh oddiygina fuqarolar ittifoqi emas, ilohiy ittifoq sifatida qaralib, nikoh rishtalarining buzilishi nihoyatda g'ayritabiiy holat deb baholangan. Nikohning buzilishi faqat er tashabbusi va ayolning katta gunohi tufayli ro'y berishi mumkin bo'lgan.

Eramizgacha bo'lgan ikki mingliklardan qolgan manbalarda ko'rsatilishicha, "sakkiz yil mobaynida bola tug'magan ayol boshqasiga almashtirilishi mumkin, o'lik bola tuqqan – o'ninchi yili, faqat qiz bolalarni tug'adigani – o'n birinchi yili, urushqoq, beadabi esa o'sha zahoti er tomonidan qo'yib yuborilishi mumkin" bo'lgan.

Keyinchalik hindlar ham ajrimlar siyosatini qayta ko'rib chiqib, endi nikoh quyidagi holatlarda ham barbod bo'lishi qayd etilgan: agar ayol erining barcha boyliklarini isrof qilish, noo'rin ishlatgan bo'lsa, abort yo'li bilan farzandini yo'qotgan bo'lsa va erining hayotiga suiqasd qilgan bo'lsa. Ayol esa faqat ikki holatda eridan ajrim talab qilish huquqiga ega bo'lgan: eri bepusht bo'lib, o'z erlik vazifasini bajara olmay qolgan bo'lsa va sodir etgan gunohi uchun uni qavmdan chiqarib yuborilgan bo'lsa.

Shunga o'xshash nikoning barbod bo'lishi shakllari ham, uning motivlari ham turfa xil. Ko'pgina xalqlarda ajrimlarning motivi sifatida er-xotin xiyonati qayd etiladi. Shunisi xarakterliki, erkaklarning xiyonatidan ko'ra ayolning xiyonati barcha madaniyatlarda ham qattiqroq qoralanadi, chunki buning asosiy sababi – xiyonatkor ayol boshqa erkak bilan uchrashib yurib, undan homilador bo'lib qolishi va nikohsiz begona bolaning tug'ilishiga sababchi bo'lib qolishi mumkin. Ya'ni, bunda nafaqat oilaning balki yangi tug'ilgan bolaning manfaati jiddiy zarar ko'radi, chunki bu bolada kimning haqi borligi, kimning mol-mulkiga u voris bo'la olishi masalasi o'ylantiradi.

Lekin er-xotinning xiyonatiga befarq qaraydigan xalqlar ham Yer yuzida topiladi. Masalan, Afrikadagi dinka qabilasida er agar xotini uning nazarida nodonroq bo'lsa ham, bemazaroq ovqat pishirsa ham u bilan ajrashib ketaveradi. Erkakning begona ayol bilan "don olishib yurishi" hech kimni qiziqtirmaydi, hattoki, qonuniy xotini ham bunga unchalik ahamiyat bermaydi. Shu kabi Assama orolida yashaydigan qabila ham ajrashishda bir-birining quyi yoki yuqori tabaqadan ekanligiga qarab qaror chiqaradi. Masalan, agar ayol yuqori tabaqa oila vakilasi bo'lsa, u nikohni bekor qilish va boshqa erkak bilan yashab ketaverish huquqiga ega bo'ladi.

Albatta, musulmon xalqlarida oila qanchalik qadrlansa, taloq yoki ajralish holatlari shunchalik tahqirlangan. Shu nuqtai nazardan musulmon olamida o'ziga xos shariyat qonunlari ishlab chiqilgan bo'lib, ular asrlar osha oila-nikoh munosabatlarini tartibga solishda muhim omil bo'lgan.

Qur'oni-Karimning qator suralarida, jumladan, uning "Baqara" surasida er va xotinning o'zaro insoniy va mulkiy munosabatlari, farzandni dunyoga keltirish va uni voyaga yetkazishda ota-onalik mas'uliyati va burchlari bayon etilgan. Unda "taloq"ning Alloh tomonidan buyurilgan, lekin uning o'ziga eng noma'qul bo'lgan amaldan ekanligi ta'kidlangan.

Demak, musulmonchilikda oilaning buzilishi "qush inining buzilishi" kabi yomon, noxush oqibatlarini keltirib chiqaruvchi omil sifatida qaraladi. Musulmon qoidalariga ko'ra ayolning nikoh ajrimining tashabbuskori bo'lishlik qoralanadi, lekin vaziyat talab qilganda ayol o'z haq-huquqlarini talab chilmagan holad erining uyidan ketishi mumkin.

Erkak esa agar bilmay "Taloq" so'zini ishlatib qo'ygan bo'lsa, o'z ayoliga qayta uchinchi martagacha uylanishi mumkin, lekin uch martadan keyin uning yana uylanishi qat'iyat man etiladi. Tabiiy, hozirgi sharoitda huquqiy davlat qurish sharoitida bunday shar'iy qoidalarga emas, amaldagi qonunlarga ko'ra ajrim holatlarini muvofiqlashtiriladi. Uning qoidalari O'zbekiston Respublikasining "Oila Kodeksi"ning "Nikohning tugatilishi" deb nomlangan 7 bobning 37-48 moddalri hamda "Nikohdan ajralishni qayd etish" deb nomlangan 26 bobning 218-

222 moddalari bilan tartibga solingan.

Rossiyada o'tkazilgan oxirgi tadqiqotlarda nikoh ajrimlarining asosiy sabablari sifatida quyidagilar qayd etilmoqda (turli yoshli so'raluvchilarning jami soniga nisbatan foiz hisobida):

- *moddiy, maishiy muammolar* – 55;
- *er yoki xotinning ichkilikka ruju qo'yishi* – 39;
- *yoshlar uchun oilaviy qadriyatlarning pastlab ketishi* – 27;
- *er-xotin xiyonati* – 19;
- *psixologik mos kelmaslik* – 17;
- *oilaviy hayotning mazmunsizligi* – 12;
- *boshqa birovni sevisish qolish* – 11;
- *farzandlarning yo'qligi* – 7;
- *boshqa sabablar* – 2;
- *javob berishga qiynalganlar* – 6.

Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazi tomonidan nikoh ajrimlarining *sabablari* o'rganilganda, aksariyat holatlarda bu birinchi o'rinda er-xotinlarning o'zaro kelishmovchiliklari, fe'l-atvorning bir-biriga mos kelmasliklari, rashk, xiyonat, kelin bilan qaynona va boshqa yaqin qarindoshlarning chiqishmasliklari, erkakning zararli odatlarga berilib ketishi (ichkilikka, giyohvand moddalarga va shu kabi), moddiy qiyinchiliklar (asosan erning ishlamasligi, mustaqil oilani boshqara olmasligi), qudalarning to'ydan keyin o'zaro kelishmay qolishlari, erning daraksiz ketib qolishi kabilar qayd etiladi.

Poytaxt bo'yicha ajrimlar sabablari o'rganilganda, iqtisodiy qiyinchiliklar tufayli oilaning buzilishi eng oxirgi o'rinda qayd etiladi, chunki aksariyat o'ziga to'q, boy-badavlat oilalarda yoshlar asosan uch sabab tufayli ajrilib ketmoqda: rashk va xiyonat, kelin-qaynona munosabatlaridagi kelishmovchilik va turmush sharoitidagi noqulayliklar. Umuman olganda, nikoh ajrimlarining bosh omili yoshlarni ma'naviy jihatdan turmush qurishga tayyor emasliklaridir.

4. Bola tomonidan ota-onalarning va ota-onalikning idrok etilishi

Mehribon ota-ona og‘ushida ayrim bolalar o‘zlarini baribir yolg‘iz, kemptik, kamsitilgan his etadi. *G.T. Xomentauskas* (1989) oilada ota-ona xulq-atvori va bolaning bu xatti-harakatlarni idrok qilishi va ota-onaga munosabatining 5 ta asosiy ko‘rinishlarini tahlil qilgan:

- Ota-ona va bola munosabatlari **demokratik** tamoyillarda amalga oshadigan oilada bolada o‘zi va ota-onasi to‘g‘risida quyidagicha tasavvur shakllaandi: “Meni sevishadi va men kerakman, shuning uchun men ham ularni juda sevaman”. Bunday bola psixologiyasi va xarakterida ustuvor fazilatlar sifatida adekvat o‘z-o‘zini baholash va insonlarga ishonch, har qanday yaxshi narsalardan, jumladan, ota-ona bilan yaqin, samimiy munosabatlar quvonish, o‘ziga ishonch, xatoliklardan cho‘chimaslik, ayb ish qilib qo‘yganda ham unchalik qayg‘urmaslik, zaruratga qarab iltimoslar qilish va bunda real ko‘mak olishga umidvorlik, ota-onaning hayotdagi o‘rni va ishonchlarini, umid va istaklari bilan hisoblashish kabilarni sanash mumkin.

- Bolaga nisbatan haddan ziyod mehribonlik (**giperproteksiya**), e‘tibor ko‘rsatilgan oilada bola “Meni sevishadi va men kerakman, ular meni deb yashashadi”, degan tasavvur mavjud bo‘ladi. Bunday oilada bolalar o‘zining borligidan, tug‘ilganligidan mag‘rurlanib yashaydi va shuning uchun har qanday tilak va xohish amalga oshishiga ishonadi. Odatda bunday bolaning tug‘ilishini ota-ona uzoq vaqt kutgan bo‘ladi va buni ular hadeb bolaga eslataveradi, shuning uchun ham bola juda egoist bo‘lib ulg‘ayadi, ota-onasining nochorligi to‘g‘risidagi tasavvur o‘zining ko‘p narsalarga qodirligi bilan uyg‘unlashadi. Tantiq bolada o‘zi to‘g‘risida go‘yoki o‘ta iqtidorli ekanligi fikri ustuvor bo‘ladi, chunki ota-ona uning ayrim, ahamiyatsiz yutuqlarini ham osmonga ko‘taradi.

- Yuqoridagi holatning aksi, ya‘ni, bolaga nisbatan **e‘tiborsizlik, mehrsizlik** bo‘lgan oilada bolaning tasavvuri quyidagicha bo‘ladi: “Meni yoqtirishmaydi, lekin men o‘zim harakat qilib, ularga yaqinlashishim kerak”. “Men yaxshi bola emasman”, degan tasavvur odatda bolada qator jiddiy salbiy

sifatlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Masalan, o'ziga bo'lgan bahoning pastligi, o'zini aybdor deb hisoblashning yuqoriligi, ko'p narsalardan hadiksirash, ayb ish qilib qo'yishdan cho'chish, kayfiyatning beqarorligi va shunga o'xshash. Bunday oilada ma'naviy muhit yaxshi bo'lmaganligi sababli bola salga yig'laydigan, "qo'rqqan oldin musht ko'taradi", deganlariday, har bir yaxshi yoki yomon ishni qilib qo'yib, o'zini oqlashga intilish psixologiyasi paydo bo'ladi. Aslida bola o'zining kutilmagan ekanligini, ota-onalari uni vaziyat taqozosi, tasodif tufayli dunyoga keltirishganligini yaxshi biladi. Chunki bu haqda ota-onalar uning oldida gapiraveradilar.

- Ota-ona *mehriga to'ymagan*, unga erisholmagan bola salbiy hissiy kechinmalarning keyingi bosqichiga o'tadi: "Sizlar meni xafa qilyapsizlar, men ham shunga munosib javob beraman". Bunday sharoitda bola ataylab, ota-onasiga yoqmaydigan qiliqlar qiladi, aytganlarining teskarisini bajaradi, tobora ota-ona uchun ham u bilan bo'ladigan muloqotlar og'ir botadigan bo'lib boradi. Qasoskor bola ko'pincha ota-ona talablarining teskarini qilib, ularning asabiga tegadigan, boshqarib bo'lmaydigan qaysar va ko'pincha jinoyat yo'liga ham kirib ketadigan insonga aylanadi.

- Ba'zan ota-ona mehrsizligidan aziyat chekkan bola kurashib charchaydi: "Meni sevishmaydi, kerak emasman, meni tinch qo'yinglar", degan ma'noda bola o'z nochorligini ifodalay boshlaydi. Bunday oiladagi vaziyat juda og'ir bo'lib, bola o'zini yolg'izlikka mahkum etadi, hammadan qochadi, o'smirlar o'rtasida sodir bo'ladigan suitsid holatlarining aksariyati ana shu psixologik vaziyatdan kelib chiqadi.

Bolani asrab olish. Ayrim holatlarda bola begona shaxslar tomonidan asrab olinadi va qonuniy ro'yxatdan o'tkaziladi. Bunday holatlarda ota-ona – bola munosabatlarida sun'iylik elementlari ko'p bo'ladi, chunki agar bolani chaqaloqligidan asrab olgan bo'lsa, bola ularni tabiiy idrok etaveradi. Lekin ota-ona uchun unga ko'nikish muammosi yuzaga keladi. Shu sababli ham bunday oilalardagi shaxslararo munosabatlar ko'p hollarda yashirin yoki ochiq ravishda tarang bo'ladi.

Bolani saqlab olgan er-xotindagi ota-onalik motivatsiyasi aslida boshqa toifalardan qolishmaydi. Ba'zan hattoki, kuchli ham bo'ladi. Chunki asrab olishga majbur qilgan motivlar bepushtlik, kech turmush qurish yoki o'z farzandining nobud bo'lganligi bo'lishi mumkin. Shuning uchun bunday oilalardagi ota-onaning tarbiya uslubi giperproteksiyaga, hattoki, haddan ziyod giperproteksiyaga o'xshaydi va shunga yarasha salbiy oqibatlariga ega.

Yana bir sabab – odatda bola asrab olishga axd qilgan er-xotinlar bolani kutadilar, kutishlar motivatsiyasi qanchalik kuchli bo'lsa, bolani erkalatib yuborish yoki unga nisbatan talabalar qo'yish shunchalik katta bo'ladi. Uchinchidan, bola boshqa insonlardan dunyoga kelgani uchun uning genlarida o'sha haqiqiy, tabiiy ota-onaning sifatlari bo'lib, u ba'zan asrab olgan ota-onaga o'xshamaydi. Texass shtatida 10 yil mobaynida o'tkazilgan tadqiqotlar natijasini tahlil qilgan rus olimasi *Ravich-Sherbo I.V.* (2002) bunday bolalardagi shaxsiy va intellektual ko'rsatkichlar tabiiy ota-onalar sifatlariga asrab olgan ijtimoiy ota-onalarnikiga nisbatan ancha yaqin bo'lishini isbotladi. Ya'ni, qanchalik urinmasin, asrandi bolada o'sha tuqqan onasi va otaning sifatlari ko'rinaveradi. Ayrim ko'nikmalar, odatlar, xarakter xususiyatlari asrab olganlarga yaqin bo'lishi mumkin. Shu bois ham ba'zi asrab oluvchi ota-onalar muayyan muddatdan keyin asrandini yetimxonalarga qaytaradilar, bu bilan ular bolaning kelgusi taqdiriga yanada murakkab chizgilarni belgilaydi, dilini og'ritadilar.

Asrandi bolalar muammosi O'zbekistonda ham mavjud. Bizda hozirgi paytda 7 mingdan ziyod bola yaqin qarindoshlar yoki mahalladagi oliyjanob insonlar tarbiyasidadir. Ular soni Mehribonlik uylaridagi chin yetimlar sonidan ortiqligi xalqimizning asl tabiatidagi odamiylik, oliyjanoblik xislatlari bilan bog'liq. Lekin nima bo'lganda ham bizda bolani o'z ota-onasi tarbiyasiga berish an'anaga aylangan. Oilaviy yetimxonalarda ham yaqinlarning yetim bolalari va turli sabablarga ko'ra ota-onadan judo bo'lgan qo'shni bolalar tarbiyalanadilar.

Psixologik adabiyotda sibling maqomi aslida (inglizcha *sibling*, *sibs* – bir oiladagi akalar va opalar ma'nosini bildiradi) – muayyan insonning muayyan oilada tug'ilishi, jinsi va tug'ruqlar orasidagi rasmiy farqni ifodalovchi tushunchani

bildiradi. Bolaning sibling maqomi va uning shaxsiy ko'rsatkichlar bilan bog'liqligi masalasiga xali aniqlik kiritilmagan, ya'ni aniq ilmiy dalillar yetarli emas. Shunga qaramay, ko'pgina tadqiqotchilar shaxsning sibling maqomi uning shaxsiga, er-xotinlik va ota-onalik maqomlariga, do'stlar bilan muomalasiga, ishda rahbariyat va hamkasblar bilan o'rnatadigan muloqotlarining xarakteriga ta'sir etishini o'rganishgan. Empirik ma'lumotlar bunday bog'liqliklarning to'rt turi mavjudligini ta'kidlaydi.

To'ng'ich bola, oiladagi farzandlarning kattasi, odatda ota-onasining umidi bo'lib, ota-onalar undan ko'p narsalarni kutadi va odatda u bu umidlarni oqlaydi ham. Undagi muvaffaqiyatlarga bo'lgan intilish, o'qish va kasb-hunar egallash yo'nalishidagi yutuqlari va unga erishish imkoniyatlari ham odatda yuqori bo'ladi. Uning muvaffaqiyatlari nafaqat ota-onaning kutishlariga bog'liq, balki ma'lum vaqt erkalatilgan bolaning, keyinchalik "taxtdan tushishi", mavqening birdan o'zgarishi va kutishlar tizimining ham shunga yarasha boshqacha bo'lib qolishi bilan bog'liqdir. Buni *Adler* iborasi bilan aytganda, "detronizatsiya", ya'ni taxtdan ayrilishi deb atash mumkin. Chunki ukasi yoki singlisi paydo bo'lgandan so'ng, ota-onasining e'tibori birdan boshqa bolaga qaratilib, unga munosabat o'zgarib qolganligini bola o'ziga xos qayg'urish bilan his qiladi. Lekin ota-onaning e'tibori va mehriga qaytadan erishish maqsadida u harakat qila boshlaydi.

Agar to'ng'ich farzandning uka ko'rgandan so'ng paydo bo'ladigan deprivatsiyasi kuchli bo'lsa-da, o'zini ko'rsatish uchun ichki imkoniyatlari, layoqati yetarli bo'lmasa (ba'zan to'ng'ich farzand nimjonroq bo'ladi), unda bolaning xulqida keskin salbiy o'zgarishlar ro'y bera boshlaydi, masalan, ukasini yomon ko'rib, unga ziyon yetkazishga harakat qiladi, inijligi bilan ota-onasini xafa qiladi, ovqat yemaydigan, o'zi mustaqil ravishda uxlamaydigan, hatto, hojatga chiqmaydigan, aytilganlarni bajarmaydigan o'jar bo'lib boradi. Hayotda shunday voqealar ham kuzatilganki, endi tetapoya bo'lib, mustaqil harakatlar qila boshlagan to'ng'ich farzand ukasini itarib yuborishi, og'ziga yomon narsalarni solib qo'yishi, beshikda uxlab yotgan bolani yiqitish holatlari bo'lgan. Ya'ni, ota-onaning domimiy mehri yetishmayotganligini his qilgan bolada rashk hissi uyg'onadi,

uning sababchisi esa yangi dunyoga kelgan ukasidir.

Shunga qaramay, aksariyat to'ng'ich farzandlar ota-onasining ziyrakligi, o'zida paydo bo'lgan ko'nikma tufayli yangi sharoitga moslashadi, sekin-asta ukasiga mehr qo'yadi, unga g'amxo'rlik qilishdan rohatlanadigan ham bo'lib qoladi. Bu unga foyda keltiradi ham: kelajakda u turli toifa insonlar, jumladan, kattalar, obro'li insonlar bilan kelishib ishlashga harakat qiladigan, ularning ko'ngliga qaraydigan, uyida ko'rganlari ko'chada qaytarilmasligiga harakat qiladigan, moslashuvchan bo'lib o'sadi. Odatda bunday bolaning tengqurlari orasida o'ziga xos mavqei bo'ladi. Yoshligidan ota-onaning yuzi-ko'ziga qarab, ularning munosabatini his qilishga o'rgangan bola kelajakda o'qituvchisi yoki rahbarining ham yuzi-ko'ziga qarab, muomala qilishga o'rganadi. Ota-onalik maqomiga aloqador munosabatlarni tashqarida boshqalarga ham qo'llashga ko'nikib boradi. Shuning uchun to'ng'ichlarda kirishimlilik, kichiklarga g'amxo'rlik, mustaqil qarorlar qabul qilishga, mas'uliyatni bo'yniga olish va liderlikka moyillik rivojlanib boradi. Shuning uchun ham jamiyatda rahbar lavozimlarda ishlayotgan, siyosiy va jamoatchilik idoralarini boshqarayotganlarning aksariyati oilada to'ng'ich farzand ekanligi o'rganilgan. Masalan, Amerika Prezidentlarining yarmi, 20 nafardan ortiq avstronavtlar oilada to'ng'ich farzandlar bo'lishgan. Odatda oilada o'sayotgan o'g'il bolalarning to'ng'ichi erkaklar jamoasini (masalan, harbiy, xalqaro, siyosiy tashkilotlar), singillari bo'lgan akalar xotin-qizlar jamoasini (maktab, shifoxona), va shunga o'xshash opalar ham mantiqan mos ravishda jamoalarni muvaffaqiyatli boshqaradigan rahbarlar bo'lib yetishadi. Nikoh borasida esa o'rtancha farzand ancha kelishib, baxtli yashashga moyil bo'ladi. Shuni ham ta'kidlash joizki, ayrim holatlarda aynan to'ng'ich farzandlar ba'zan jamiyatda muammoli, tarbiyasi og'irlar kategoriyasiga tushib qoladi. Bunga yo ota-onaning katta farzandidan umidlarining haddan ziyod og'irligi yoki "detronizatsiya" jarayonining bola tomonidan salbiy idrok etilishi sabab bo'ladi.

Ikkinchi farzand (yoki o'rtancha) odatda kattalarga tobe, o'zgalar ko'magiga muhtoj, adolatsizlik, xaqsizliklar va qattqlikka chidamsiz,

boshqalarning munosabatlarini injiqlik bilan qabul qiladigan bo‘lib o‘sadi. U akasi yoki opasiga qarab, uning soyasida ayyorroq, epsizroq bo‘lib ko‘rinadi, chunki tug‘ilganidan yonida undan kattalar borligiga u ko‘nikib boradi. O‘rtancha farzandlardan yaxshi san’atkorlar, sportchilar, diplomatlar, odamlar bilan ishlashga ustasi farang rahbarlar yetishib chiqishi ham mumkin.

Kichik farzand umrining oxirigacha o‘zini kichikman, deb his qilishga moyil bo‘ladi, uni hech kim hafa qilishi mumkin emas. Hamisha g‘amxo‘rlik og‘ushida bo‘lgan kichiktoy, kelajakda ham hamma yerda o‘zini muhofazada, xavfsizlikda his etishga moyil bo‘ladi va buni o‘zgalardan talab ham qiladi. Ularning kayfiyati ko‘pincha yaxshi bo‘lib, yon-atrofidagilar bilan yaxshi muomalaga kirisha oladi. Odatda kichik farzandda muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi kuchli, raqobatbardoshlik talab etilgan sharoitda u chidamliroq bo‘ladi. Afsuski, ularning nikoh borasida omadlari kamroq bo‘lishi kuzatilgan, oilada kichik farzand bo‘lganlar salga ajralishni o‘ylaydi, chunki ulardan yaxshi vafodor, chidamli er yoki xotin chiqmaydi. Shu bois, turmush qurishga ham unchalik shoshmaydi, chunki o‘ziga mas’uliyatni olishni yoqtirmaydi.

UMUMIY XULOSALAR

Kurs ishi mavzusiga oid manbalar natijalariga ko'ra quyidagi umumiy xulosalarga kelindi:

1. Har bir yilning bir-biri bilan bog'liq holda nomlanishi va bu borada amalga oshirilayotgan ishlar diqqatga sazovordir. Ushbu yillar orasida "Oila yili", "Sog'lom avlod yili", "Sihat salomatlik yili", "Ijtimoiy himoya yili", "Barkamol avlod yili"ning dasturlari alohida ahamiyat kasb etadi. Bu tadbirlarning bosh g'oyasi mazmunida xalqimiz, Vatanimizning ravnaqi, oilalarning baxtli hayoti mujassamdir. Bu ishlarning zamirida xalq farovonligi, oila totuvligi, oilaviy munosabatlarning ijobiy qaror topishi singari hayotiy ko'nikmalar yotadi.

2. O'zbek oilasi qadimdan ezgulik va sadoqat, ahillik va poklik timsoli bo'lib shakllangan va bugungi kungacha xalqimiz bu an'anani muqaddas saqlagan holda asrlar silsilasidan o'ta oladi. O'zbek oilasida an'anaviy tarbiya hamisha bosh mezon bo'lib kelgan va undagi ma'naviy muhit muhim o'rin tutadi. Shaxs ma'naviyati, uning dunyoqarashi, tasavvur va e'tiqodiga oid ko'nikmalar asosan oila sharoitida shakllanadi. Oila ibrat maktabi, tarbiya va ma'naviyat o'chog'i, g'oyaviy tarbiyaning omilidir.

3. Oilada ma'naviy tarbiyani shakllantirishda ota-onaning vazifalari keyingi kichik mavzudan joy olgan bo'lib, jamiyat uchun zarur hisoblangan farzandlarni ruhan va jismonan sog'lom qilib voyaga yetkazish ota-onaning nafaqat shaxsiy ishi, balki ijtimoiy burchi ekanligi ta'kidlanadi.

4. Oilada sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, bilimli, aql-zakovatli, uddaburon, zukko, ruhan va ma'naviy barkamol insonni voyaga yetkazish, shuningdek, oila an'alarini, shajarasini davomiyligini ta'minlash, farzandni bo'sh vaqtini unumli o'tkazish, giyohvandlik maishiy nopoklik, axloqsizlik kabi illatlarga yo'l qo'ymaslik borasidagi fikrlar mavzuning ikkinchi kichik bobida bayon qilingan.

5. Oilada sog'lom turmush tarzini shakllantirish orqali yoshlarni milliy vatanparvarlik, isnosnlarparvarlik g'oyalariga, umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatli qilib tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlangan.

6. Oiladagi ma'naviy muhitni shakllantirishdagi muhim omillardan yana biri mahallada tashkil etiladigan tadbirlarda, yaxshilik va og'ir kunlarda mahalladoshlar orasida bo'ladigan oqibatli ishlardan farzandlarni ogoh etish va ularning yoshlariga va jinslariga qarab tadbirlarda ishtirok etishlarini ta'minlashdan iboratdir. Umuman olganda o'zbek oilasi hamisha ma'naviy tarbiyaga alohida e'tibor berilgan holda odob doirasidagi ko'rinishlarda tarbiya mezoniga tayanadi. O'zbek oilasida ma'naviy tarbiyani shakllantirish va unga alohida e'tibor berish haisha bosh vazifa bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.

7. Ota-onalik maqomiga aloqador munosabatlarni tashqarida boshqalarga ham qo'llashga ko'nikib boradi. Shuning uchun to'ng'ichlarda kirishimlilik, kichiklarga g'amxo'rlik, mustaqil qarorlar qabul qilishga, mas'uliyatni bo'yniga olish va liderlikka moyillik rivojlanib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni //Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997. – 20-29-b.
2. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" //Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997. – 31-61-b.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: "O'zbekiston" 1997
4. Karimov. I.A. Milliy istiqlol g'oyasi – xalqimizning sh ishonchi va e'tiqodi. T.: "O'qituvchi" 2004.
5. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. 4-jild. T.: "O'zbekiston" 1996
6. Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.8.T.: "O'zbekiston", 2000. – 528 bet.
7. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: "Ma'naviyat", 2008. -176 b.
8. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: O'zbekiston, 2011. – 440 b.
9. "Mustahkam oila yili" Davlat dasturi. 2012 yil. Xalq so'zi gazetasi.
10. Fitrat A. "Oila yoki oila boshqarish tartiblari". T.: "Ma'naviyat" 1998
11. Maxmud T. Ma'naviyat asoslari. T.: "O'zbekiston" 2000
12. Egamberdieva T. "Ayollar faolligini oshirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari". T.: "Fan" 2006
13. Mualliflar guruhi. Istiqlol davrida oila qadriyatlarining transformatsyalashuv jarayonlari. Farg'ona 2005
14. "Oila" jurnali. №02, 2005 yil
15. Mannopov S. Oila va oilaviy munosabatlar sotsiologiyasi. Ma'ruzalar matni. Farg'ona 2007
16. Hafizov T., Shodmonov Q. "Jamoatchilik nazorati". Farg'ona 2007
17. Qurbonov T. "Ota bo'lish oson". T.: "Ma'naviyat" 2007